



UDK:94.05

Ravshan DJURAYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti "Jahon tarixi" kafedrası dotsenti, PhD

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori S. Shadmanova taqrizi asosida

HISTORICAL ANALYSIS OF LIVESTOCK PRODUCT PROCESSING ISSUES IN THE 1960S–1970S OF THE 20TH CENTURY

Annotation

This article provides a historical analysis of livestock product processing in the Uzbek SSR during the 1960s–1970s. It examines the existing challenges in production and processing, the influence of state policies, the outcomes of economic reforms, and the socio-economic factors behind the development of the food industry based on livestock products. Using archival documents, statistical data, and periodical press materials, the article reveals the efficiency of production, the role of processing enterprises, and the transformations in the livestock product procurement system of that period.

Keywords: 20th century, Uzbek SSR, livestock, product processing, food industry, economic reforms, historical analysis.

ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВОПРОСОВ ПЕРЕРАБОТКИ ПРОДУКЦИИ В ЖИВОТНОВОДЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ В 1960–1970-Е ГОДЫ XX ВЕКА

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы переработки продукции в животноводческой отрасли Узбекской ССР в 1960–1970-е годы. Освещаются существующие проблемы в сфере производства и переработки, влияние государственной политики, результаты экономических реформ, а также социально-экономические факторы развития пищевой промышленности на основе продукции животноводства. На основе архивных документов, статистических данных и материалов периодической печати раскрываются эффективность производства, деятельность перерабатывающих предприятий и изменения в системе заготовки продукции животноводства.

Ключевые слова: XX век, Узбекская ССР, животноводство, переработка продукции, пищевая промышленность, экономические реформы, исторический анализ.

XX ASRNING 60-70-YILLARIDA CHORVACHILIK TARMOG'IDA MAHSULOTNI QAYTA ISHLASH MASALALARINING TARIXIY TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada XX asrning 60–70-yillarida O'zbekiston SSRda chorvachilik tarmog'ida mahsulotlarni qayta ishlash masalalari tarixiy jihatdan tahlil qilinadi. Unda mahsulot yetishtirish va uni qayta ishlashdagi mavjud muammolar, davlat siyosatining ta'siri, iqtisodiy islohotlarning natijalari hamda chorvachilik mahsulotlari asosida oziq-ovqat sanoati rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy omillari yoritilgan. Arxiv hujjatlari, statistik ma'lumotlar va davriy matbuot materiallari asosida o'sha davrda ishlab chiqarishning samaradorligi, qayta ishlash korxonalarining faoliyati hamda chorvachilik mahsulotlarini tayyorlash tizimidagi o'zgarishlar ochib beriladi.

Kalit so'zlar: XX asr, O'zbekiston SSR, chorvachilik, mahsulotni qayta ishlash, oziq-ovqat sanoati, iqtisodiy islohotlar, tarixiy tahlil.

Kirish. XX asrning 60–70-yillari O'zbekiston SSRda chorvachilik tarmog'ining rivojlanishi va undagi ijtimoiy himoya masalalari davr tarixida alohida o'rin tutadi. Bu davrda Sovet Ittifoqi agrar siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri qishloq mehnatkashlarining turmush sharoitini yaxshilash, ularni ijtimoiy kafolatlar bilan ta'minlash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'ldi. Chorvachilik tarmog'ida mehnat qilayotgan dehqon va ishchilarning moddiy manfaatdorligini oshirish, ijtimoiy sug'urta, pensiya tizimi va tibbiy xizmat ko'rsatishning kengayishi davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllandi. Shu bilan birga, mazkur davrda qabul qilingan hukumat qarorlari va dasturlar chorvachilik sohasidagi ijtimoiy himoya tizimining tarixiy asoslarini tahlil qilish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, u o'tgan asrning ikkinchi yarmida O'zbekiston SSRda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishida chorvachilik tarmog'ining o'imi va ahamiyatini, shu jumladan, mehnatkashlarning ijtimoiy himoya tizimi orqali davlat va jamiyatning qishloq xo'jaligi sohasiga bo'lgan e'tiborini

yoritib beradi. Bu masalani o'rganish bugungi kunda ham ahamiyatlidir, chunki ijtimoiy himoya institutlarining tarixiy shakllanishi mustaqil O'zbekiston agrar siyosatining izchilligi va o'zgarishlarini tushunishda muhim metodologik asos vazifasini bajaradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, XX asrning 60–70-yillarida Sovet davlati agrar siyosatining turli jihatlari ko'plab tadqiqotlarda yoritilgan. Avvalo, Sovet davrida chop etilgan rasmiy hujjatlar, hukumat qarorlari va statistik to'plamlar chorvachilik tarmog'idagi ijtimoiy himoya masalalarini o'rganishda asosiy manba hisoblanadi. Masalan, O'zbekiston SSR Davlat reja qo'mitasi (Gosplan) va Qishloq xo'jaligi vazirligi materiallari chorvadorlarning mehnat sharoitlari va ijtimoiy ta'minot tizimi haqida muhim ma'lumotlar beradi.

Sovet davrida yozilgan iqtisodiy va tarixiy asarlarda (masalan, A. G. Rashin, V. P. Danilov, I. I. Mins kabi mualliflar tadqiqotlarida) qishloq xo'jaligida olib borilgan siyosatning umumiy yo'nalishlari yoritilgan bo'lsa-da, chorvachilik tarmog'idagi ijtimoiy himoya masalalari ko'proq

umumiy kontekstda tilga olinadi. Mahalliy tadqiqotchilar – o'zbek tarixchilari va iqtisodchilari ham chorvachilikning iqtisodiy natijalari, ishlab chiqarish hajmlari, davlat rejalarining bajarilishi kabi masalalarga e'tibor qaratganlar, biroq ijtimoiy himoya tizimining o'ziga xos jihatlari yetarlicha tadqiq etilmagan.

Mustaqillikdan keyingi davrda yozilgan ayrim ilmiy ishlar (masalan, O'zbekiston SSR agrar siyosati va mehnat munosabatlariga oid dissertatsiyalar hamda maqolalar) esa tarixiy jarayonlarga yangicha yondashuvni taqdim etadi. Bu tadqiqotlarda sovet davridagi ijtimoiy siyosatning ijobiy va salbiy jihatlari, uning mehnatkashlar hayotiga ta'siri, ayniqsa qishloq xo'jaligi va chorvachilikdagi o'ziga xosliklari qayta baholangan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, XX asrning 60–70-yillarida chorvachilik tarmog'ida ijtimoiy himoya masalalari alohida tarixiy-tahliliy o'rganishni talab etadigan dolzarb mavzudir. Bu tadqiqotning yangiligi shundaki, u mavjud manba va adabiyotlarni kompleks yondashuv asosida tahlil qilib, ijtimoiy himoya tizimini alohida bir ilmiy muammo sifatida ko'rib chiqadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ilmiy maqola qiyosiy tahlil, tarixiylik, ilmiylik, uzviylik kabi metodlarga tayanilgan holda yozilgan.

Tahlil va natijalar. Sovet hokimiyati yillarida chorvadan olinadigan mahsulotlarining va ularni olishga qaratilgan xarajatlarning iqtisodiy samaradorligi hisobi bo'yicha alohida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur ishlarga ko'ra, chorva mollari mahsulдорligini ko'paytirish birinchi navbatda ozuqa bazasiga bog'liq bo'lgan. Sovet davrida go'sht mahsulotlari hajmini oshirish maqsadida chorvalarni yaylovda boqish va maxsus ozuqa ovqatlari bilan semirtirish ishlari olib borilgan. Mazkur jarayon respublikaning go'shtga bo'lgan talabining 20-25 foizini qoplash imkoniyati bergan va shu sababli mazkur yo'nalish davlat ahamiyatiga molik ishlardan biri sifatida qaralgan. Chorvalarni yaylovda boqish va ozuqalar berish orqali semirtirish ishlari va ulardan olingan go'sht mahsulotlari kolxozlar va yakka tartibdagi xo'jaliklarning asosiy iqtisodiy kirimlaridan biri bo'lgan. Shunday bo'lsada bu yo'nalishda ishlar bardavom rivojlanmagan. Xususan, 1929-1930 yillarda "O'zbekiston chorvachilik ittifoqi" va chorvachilikka aloqador bosh tashkilotlar chorvalarni semirtirish orqali ulardan olinadigan iqtisodiy samaradolikni to'g'ri baholay olmagan. "O'zbekiston chorvachilik ittifoqi" "Ittifoq go'sht" tashkiloti bilan tuzilgan shartnoma asosida mazkur yillarda jami 11,5 ming bosh chorvani yaylovlarda va maxsus ozuqalar bilan semirtirib, ularni go'sht uchun topshirishi lozim bo'lgan. Biroq amalda bu faqatgina 9 832 bosh chorva uchun amalga oshirilgan. Mazkur ishlarni tashkil qilish ishlari o'z vaqtida amalga oshirilmagan. Chorvalarni semirtirish uchun 1929-1930 yillarda kolxozlar va yakka tartibdagi xo'jaliklar har bir qo'yni 10 kilogramm vazn orttirishi uchun 15,3 kilogrammdan 16,74 kilogramgacha chorva ozuqasi olishi kerak bo'lgan. "Ittifoq go'sht" mazkur orttirilgan har 10 kilogram uchun 1 rubl 50 kopek, keyingi 2 kilogram uchun 75 kopek hamda keyingi 4 kilogram uchun 2 rubl to'lagan. Umuman olganda, chorvalarni semirtirish jarayonida qo'yni o'rtacha 16 kilogram qo'shimcha vazn olishi uchun "Ittifoq go'sht" 4 rubl 25 kopekdan to'lagan. Manbalar tahlilidan shuni ko'rish mumkinki, mazkur yillarda go'sht yetishtirishga bo'lgan bu urinishlar o'z samarasini yetarli darajada bermagan. Biroq, shunga qaramasdan mazkur jarayon sovet hokimiyatining so'ngi yillarida ham amalda bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, 1980 yillarda chorva mollaridan ko'proq go'sht mahsulotlari olish maqsadida maxsus zotdor chorvalarni ajratish va ularni maxsus ozuqalar bilan boqishga ahamiyat berilgan. 1920-1940 yillardagi islohatlardan farqli ravishda 1980 yillarda bu o'zgarishlar o'zining samarasini

bergan bo'lib, har bir chorvadan go'sht olish hajmi oshgan. Masalan, qoramollarning o'rtacha vazni 98 kilogramni tashkil etgan. Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, 1920-1925 yillarda qoramolning vazni o'rtacha 200-250 kilogramni tashkil etgan.

"O'zbekiston chorvachilik ittifoqi" tashkiliy ishlardagi xarajatlari uchun har bir qo'y foydasining 1 foizini o'zida saqlab qolgan. 1929-1930 yillarda "O'zbekiston chorvachilik ittifoqi" kolxoz va yakka tartibdagi xo'jaliklarga (oila) bo'rdokilikka boqish uchun 1178 ta operatsiya o'tkazgan. Biroq mazkur ishlarni tashkilot tashkil qilingan holda olib bormagan. Jumladan, chorvalarni bo'rdokilikka boqish uchun qo'yxonalar qurilmagan hamda keltirilgan chorvalar dastlabki 1,5 oy davomida semirish o'rniga o'zining avvalgi vaznini tashagan. Aslida mazkur chorvalar "O'zbekiston chorvachilik ittifoqi"ga 75 kun davomida o'rtacha 19,43 kilogramm vazn orttirish uchun topshirilgan. "O'zbekiston chorvachilik ittifoqi" mazkur chorvalarni bo'rdokilikka boqish ishlardan xarajatlarni olib tashlaganda jami 1 700 rubl yoki har bir qo'ydan o'rtacha 1 rubl 50 kopek foyda olishi lozim edi. Biroq chorvalarni semirtirish jarayonlari yaxshi tashkil qilinmaganligi sababli 1 000 rubl foyda olish bilan chegaralangan.

1950-1960 yillarda chorva mavsumidagi tashkiliy masalalardagi kamchiliklar "O'zbekiston chorvachilik ittifoqi" va "Ittifoq go'sht" tashkilotlarini oralaridagi shartnomalarni va tashkiliy masalalarni qaytadan ko'rib chiqishga undadi. "Ittifoq go'sht" tashkiloti "O'zbekiston chorvachilik ittifoqi" muassasasiga 1960-1961 mavsumi uchun 155 000 bosh qo'y va 6 000 bosh qoramollarni semirtirib berishni taklif etadi. Mazkur kelishuvga ko'ra bo'rdokilikka boqish ishlardan jami 256 722 rubl foyda olish ko'zda tutilgan. Biroq mazkur shartnomada va bu jarayonlarga tegishli boshqa hujjatlarda kirim foydasi va chiqim xarajatlari to'liq tushuntirilib berilmagan.

Sovet hokimiyati yillarida go'sht mahsulotlarini ishlab chiqish uchun bir qancha uslublar amalga oshirilgan. Mazkur yillardagi chorvalarni bo'rdokilikka boqish ishlari chorvalarni kolxozlar va yakka tartibdagi xo'jaliklarga berish orqali amalga oshirishga kelishilgan. Bunda mazkur tashkilotlar vaqti-vaqti bilan chorvalar holatini tekshirib turgan. Bo'rdokilikka boqish ishlari bir qancha xarajatlarni talab qilardi. Ulardan eng asosiy chorva ozuqasi hisoblangan. Ulardan yana biri chorvalar beriladigan kolxoz va yakka tartibdagi xo'jaliklarga qo'yxonalar qurib berish bo'lgan. Bunda xarajat har bir bosh chorva uchun o'rtacha 50 tiyinidan to'g'ri kelgan. Bunda faqat qo'yxona qurib berish bilan cheklanmasdan, balki yem-xashaklar saqlovchi omborxonalar va u yerda ishlovchi shaxslar uchun yashash makoni qurish zarur edi. Boshqa tomondan, mazkur ishlar tezda olib borilmagan. Chunki mazkur obyektlarni qurish uchun qurilish materiallari vaqtida yetkazib berilmaganligi sababli ishlar cho'zilib ketgan. Bu o'z navbatida chorvalarni bo'rdokilikka boqish jarayonlarini qiyinlashtirgan. Bundan tashqari, chorvalarni bo'rdokilikka boqish ishlarni olib boradigan kadrlar mavjud bo'lmagan va shu sababli "O'zbekiston chorvachilik ittifoqi" asosan avval chorvadorlik bilan shug'ullangan shaxslarni jalb qilgan. Umuman olganda, mazkur ishlar go'sht mahsulotlarining ishlab chiqarish hajmiga ta'sir qilgan. O'zbekiston SSR viloyatlari go'sht mahsulotlari balansida chorva turlari bir xil emas edi.

Xulosa va takliflar. XX asrning 60–70-yillarida O'zbekiston SSR chorvachilik tarmog'ida ijtimoiy himoya masalalari davlat agrar siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lganini ko'rish mumkin. Sovet hukumati tomonidan pensiya tizimi, ijtimoiy sug'urta, bepul tibbiy xizmat, moddiy rag'batlantirish mexanizmlarining joriy etilishi qishloq mehnatkashlari, jumladan chorvadorlarning ijtimoiy ahvolini nisbatan yaxshilagan. Biroq ijtimoiy himoya siyosatida rasmiy statistika bilan real hayot o'rtasida sezilarli tafovutlar bo'lib,

ko'plab muammolar (pensiya ta'minotining pastligi, tibbiy xizmatning chekka hududlarda yetarli emasligi, moddiy rag'batlantirishning sustligi) saqlanib qolgan. Shu bois, mazkur davrni tahlil qilish ijtimoiy himoya tizimining tarixiy rivojlanish yo'lini, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Chorvachilik tarmog'ida ijtimoiy himoya masalalarini chuqurroq o'rganish uchun arxiv hujjatlari, Sovet davri statistik to'plamlari va davriy matbuot materiallari yanada keng qamrovda jalb qilinishi lozim. O'zbekiston SSRning turli hududlarida chorvadorlarning ijtimoiy ahvoli va

davlat siyosati ta'sirini hududlar kesimida o'rganish keyingi ilmiy izlanishlar uchun dolzarbdir. Chorvachilikdagi ijtimoiy himoya masalalarini Sovet Ittifoqining boshqa respublikalari bilan taqqoslab o'rganish umumiy jarayonlarni aniqlash va milliy xususiyatlarni ko'rsatish imkonini beradi. O'rganilgan tarixiy tajribalar mustaqil O'zbekiston agrar siyosatida ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirishda, xususan, qishloq mehnatkashlari uchun samarali ijtimoiy kafolatlar yaratishda foydalanilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. За дальнейший подъем животноводства в Республике// Сельское хозяйство Узбекистана. 1957. №2. -С.3-8.
2. Ершова Е. Развитие животноводства в Узбекистане// Сельское хозяйство Узбекистана. 1957. №11. -С.40-45.
3. Насыров Б. Важная отрасль производства в совхозах Узбекистана. [О развитии животноводства]. Совхоз. Производства. 1958. №5. -С.44-48.
4. Мирецкий С. Больше мяса, молока и масла населению. [Успехи животноводства в Узбекистане]. Блокнот агитатора. Ташкент. 1958. №8 (март). -С.11-19.
5. Риш М., Егоров Е., Махмудов М. Изучение биогеохимических провинций Узбекской ССР и его значение для животноводства республики. Труды Инс-та каракулеводства (Узбек. Акад.с.-х. наук). Т.1960. -С.237-245.
6. ЎзМА, Р.837-фонд, 41-руйхат, 544-иш, 3-варақ.
7. ЎзМА, Р.837-фонд, 41-руйхат, 544-иш, 11-варақ.
8. ЎзМА, Р.837-фонд, 41-руйхат, 544-иш, 87-варақ.
9. ЎзМА, Р.837-фонд, 41-руйхат, 544-иш, 154-варақ.
10. ЎзМА, Р.837-фонд, 41-руйхат, 544-иш, 154-варақнинг орқа томони.